

Transport nazorati inspeksiyasi tomonidan inspeksiya xodimlari va jamoatchilikka **MUROJAATI**

Taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'yayotgan O'zbekiston uchun korrupsiyaning har qanday shakldagi ko'rinishi islohotlar shiddatini susaytirishi bilan naqadar xavfli va eng katta illatlardan biri ekanligi hammamizga ma'lum. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: **"Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a'zolari, ta'bir joiz bo'lsa, "halollik vaksinasi" bilan emlanmas ekan, o'z oldimizga qo'ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Biz korrupsiyaning oqibatlari bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o'tishimiz kerak"**, - deb bejizga ta'kidlamaganlar. Korrupsiyaga qarshi nafaqat O'zbekiston balki butun dunyoda keskin kurash olib borilmoqda.

Respublikamizda har bir amalga oshirilayotgan islohot **"Inson qadri uchun"**, **"Davlat - insonlar uchun"** degan xalqchil g'oya, izchillik bilan qaror topib bormoqda.

Xususan, Transport nazorati inspeksiyasi ham transport sohasida davlat nazoratini amalga oshirib kelmoqda. Keyingi yillarda mamlakatimizda inson va uning qadr-qimmatini yuksaltirish borasida ochiqlik hamda shaffoflikka asoslangan islohotlar amalga oshirilmoqda.

Iqtisodiyotda strategik ahamiyatga ega bo'lgan transport sohasida har kuni minglab transport vositalari, avtobus hamda poyezdlar harakatlanadi va minglab insonlarni, yuklarni o'z manzili tomon eltadi. O'z navbatida, Transport nazorati inspeksiyasi uchun ham transportda tashishlarda insonlarning xavfsizligi birinchi turadi. Shu bilan birga, respublikamiz hududida yashovchi fuqarolar hamda yurtimizga tashrif buyurayotgan chet ellik mehmonlarning uzog'ini yaqin qilayotgan zamonaviy, qulay yo'lovchi poyezdlar va transport vositalarining o'z vaqtida xavfsizligini ta'minlash barchamizning vazifamizdir.

Shuningdek, yuklarni tashish temir yo'l transporti hamda yuk avtotransportning asosiy funksiyalaridan hisoblanib, sanoat va qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarilishi jarayonidan tortib, uni davom ettirish va yakunlash hamda aholining ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan yuklarni manziliga xavfsiz yetkazishdan iboratdir. Bunda esa Inspeksiyaning bevosita aloqador desak ayni muddao bo'ladi.

Bu boradagi ishlarni samarali tashkil etishda Inspeksiya xodimlari o'z ishini mas'uliyat va vijdonan bajarishi muhim hisoblanadi. Bilamizki, korrupsiya shunday illatki, uni bir yoki ikki idoraning sa'y-harakati bilan batamom yo'q qilib bo'lmaydi. Qachonki, barcha fuqarolarimiz, jamoatchilik unga qarshi birgalikda kurashib, uning ildizlarini yo'q qilishga kirishilsagina ijobiy natijaga erishish mumkin.

Korrupsiya nafaqat mamlakatga moddiy yo'qotish olib keladi, balki tadbirkorlik rivojiga, qonun ustuvorligini shakllantirishga to'sqinlik qiladi, jamiyatda ijtimoiy keskinlikni, davlat boshqaruv organlariga ishonchsizlikni keltirib chiqaradi va natijada halokatli oqibatlar yuzaga keladi.

Inspeksiyaning **korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Siyosati**, korrupsiyaviy **xavf-xatarlarni baholash Uslubiyoti**, **manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha Nizom**, aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarini qabul qilish va ko'rib chiqish **Reglamenti**, etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishini tashkil qilish bo'yicha, kontragentlarni

tekshirishga oid va ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha **Yo'riqnomalar**, Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va **nazorat qilish Uslubiyoti**, korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to'g'risidagi **hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha Nizom** hamda korrupsiyaviy xatti-harakatlari va odob-ahloq qoidalarini buzish holatlari ustidan **xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha Reglamenti** bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

Shuningdek, Inspeksiyaning 2024 yil 25 apreldagi tasdiqlangan **Korrupsiyaviy xavf-xatarlar Xaritasi** hamda Inspeksiya markaziy apparati va hududiy filiallarining **korrupsiyaga qarshi kurashish DASTURI** asosida ishlar amalga oshirilmoqda.

2024 yilning II choragida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi **PQ-5177**-son qarori **11-bandi** ijrosi yuzasidan "halollik vaksinasi" tamoyili asosida davlat xizmatchilarini muntazam ravishda korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to'qnashuvi va odob axloq qoidalari bo'yicha maxsus o'quv kurslarda o'qitish tizimini joriy etilishi munosbati bilan inspeksiya sining 120 nafar boshqaruv xodimlarini Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tomonidan **Korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish masalalari bo'yicha** 12 soatlik masofaviy o'quv kurslarda **o'qishlar tashkil qilindi**.

Inspeksiyaning 2021 yil 12 apreldagi "Ishga qabul qilish, xodimlarni boshqa lavozimga o'tkazish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 97-son buyrug'iga muvofiq **Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi** bilan hamkorlikda e'lon qilingan mustaqil, **ochiq tanlov asosida** ishga qabul qilish ishlari amalga oshirib kelinmoqda.

Inspeksiyada xodim va ish beruvchi o'rtasida tuzilgan **mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi kurashish shartlari bo'yicha o'zgartirishlar kiritildi**.

Inspeksiyada korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida tezkor xabar berish imkonini beruvchi aloqa kanallari, maxsus axborot portallari, ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalar, "Call-center" faoliyati yo'lga qo'yilgan. Jumladan, Inspeksiyaning rasmiy sayti ("**uztn.uz**"), telegram kanali ("**https://t.me/Uztransnazorat**") yo'lga qo'yilgan. Korrupsion holatlar haqida xabar berish uchun qayta aloqa boti ("**https://t.me/anticorruption_uztn_bot**") tashkil qilingan. O'z navbatida, inspeksiyada korrupsiya holatlari haqida xabar berish mexanizmi joriy etilgan bo'lib, xabar bergan xodimlarni rag'batlantirish, ularning ta'qibga olinmasligi kafolatlanadi.

Poraxo'rlik jamiyat barqarorligining muhim asosi bo'lgan adolatning yo'qolishiga, qonunlarni mensimaslikka olib keladi. Xalqimiz farovonligi va soha rivojini istagan har bir xodim hamda ular bilan munosabatlarga kirishuvchi xoh davlat tashkiloti va korxonalari, shu bilan birgalikda tadbirkorlik subyekti pora olish va berish illatidan xalos bo'lishi, bir so'z bilan aytganda "**halollik vaksinasi**" bilan emlanishi shartdir.

Agarda, mazkur illat Inspeksiyaning xodimlari faoliyatida uchrasa, sohada amalga oshirilayotgan islohotlarga albatta o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "**davlat tizimini ichidan yemiradigan, ijtimoiy barqarorlik kushandasi bo'lgan korrupsiya balosiga qarshi, byurokratiyaning har qanday ko'rinishlariga, odamlarni mensimaslik, mahalliychilik va guruhbozlik illatlariga qarshi barchamiz keskin kurash olib borishimiz kerak**".

Afsuski, ba'zi sohalarda faoliyat yuritayotgan ayrim nopok xodimlar o'z mafaatlarini ko'zlab, mansab vakolatlarini suiiste'mol qilib, noqonuniy ishlarga aralashib qolayotgani achinarli holatdir. **“Qing'ir ishning qiyig'i qirq yilda ham chiqadi”** degan maqol bejiz aytilmagan. Sodir etilgan har qanday poraxo'rlik sirligicha qolmaydi, albatta oshkor bo'ladi. Shuning uchun men **sizlarni ogohlantirib o'tmoqchiman, har qanday jinoyat uchun jazo muqarrardir**, buni har bir Inspeksiya xodimi vujudi bilan his qilishi, ko'z oldiga bolalari, ota-onasi va akakularini keltirishi kerak.

Barchamiz vakolat doiramizdan, xizmat vazifamizdan hamda fuqarolik burchimizdan kelib chiqib, har bir korxonada va tashkilotlarda, shuningdek, tuman, shahar va mahalla hududidan o'tuvchi avtomobil transportida va temir yo'lda poyezdlarning harakat xavfsizligiga qaratilgan qonunchilik talablarini so'zsiz bajarilishini ta'minlashimiz zarur.

Inspeksiyaning tashkilot va korxonalarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 13-sentabrdagi **PQ-374-sonli** asosida o'tkazilayotgan tekshiruvlarda ishtirok etayotgan Avtomobil va suv transportida nazorat boshqarmalari, Temir yo'l transporti va metropolitenda nazorat boshqarmalari hamda Yo'l qurilish ishlarini nazorat qilish boshqarmalari bo'yicha har bir inspektorni men shunday ta'riflagan bo'lardim – bu oddiy xodim emas, u davlat topshirig'i va manfaatlari bo'yicha uning nomidan harakat qiluvchi shaxsdir. Shuning uchun inspektor degan yuksak hamda sharaflilik nomga dog' tushirmaslik uchun halol bo'lishimiz, oldimizga qo'yilgan vazifalarni vijdonan, vatanparvarlik tuyg'usini to'liq his etgan holda bajarishimiz lozim bo'ladi. Tekshiruvlar tartibini buzgan xodimlar Ma'muriy javobgarlik kodeksining 241², 200², 241¹-241⁴, 241⁶, 241⁸, 241¹⁰ - moddalarida hamda Jinoyat kodeksining 92²-moddasiga muvofiq ma'muriy va jinoiy javobgarlikka toritilishini esdan chiqarmaslik zarur.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrdagi **“Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”**gi 829-son qarori muvofiq korrupsiyaga oid ma'muriy huquqbuzarliklar hamda korrupsiyaga oid jinoyatlar belgilangan.

korrupsiyaga oid ma'muriy huquqbuzarliklar — O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 61¹, 193¹ va 193²-moddalarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar.

Korrupsiyaga oid jinoyatlar — O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 167-moddasining ikkinchi qismi «g» bandi, 168-moddasining uchinchi qismi «v» bandi, 192⁹ va 192¹⁰, 205, 209 — 214-moddalari va 243-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlarni mansab mavqeidan foydalangan holda sodir etish hamda 301-moddasida ko'rsatilgan jinoyatlarni o'z ichiga oladi.

Inspeksiya xodimi yuragi, qo'li toza, ko'ngli ochiq, aql va zakovat sohibi bo'lsa, u albatta halq ishonchini, e'tiborini qozona oladi. Shunday ekan, inspeksiyaning samarali faoliyati uchun avvalambor o'zimiz mas'ul ekanligimizni unutmaylik.

Kelinglar, korrupsiya va poraxo'rlikka qarshi murosasiz kurash olib boraylik!

Murojaatlar uchun ishonch telefon raqami: [71-202-05-01 \(452\)](tel:71-202-05-01).